

MAJOLIS UN-NAFOIS– XV ASR KO‘ZGUSI

Avrilloyeva Aziza Abbos qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Anotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” (Nafis majlislari) asarining yaratilish tarixi va undan ko‘zlangan asosiy maqsad hamda asarning o‘zagini tashkil etuvchi majlislar xususida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: tazkira, majlis, shoirlar, XV asr, adabiy jarayon, Sharq adabiyoti, adabiy muhit, turkiy til, forsiy til, nazm

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari 1491-1498-yillar oralig’ida yaratilgan bo‘lib, ushbu asar Sharq adabiyotida tazkira janrining eski turkiy tildagi ilk mukammal namnasi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Fitrat “Majolis un-nafois” asarini “Turkiy tazkira adabiyotining birinchi yuksak namunasi”-, deb ataydi[1]. Shuningdek, “Majolis un-nafois” asari 8 majlisdan iborat va XV asrda ijod qilgan 459 ta shoir, hukmdorlar, olim va davlat arboblarning qilgan ishlari haqida ma’lumot keltirgan. Sodiqov.A “XV asr o‘zbek adabiy muhiti haqidagi eng muhim manba’ deb baholaydi[2]. Alisher Navoiy asarni yozishda bir necha asosiy maqsadni ko‘zlagan. Birinchisi, XV asr adabiy muhitini tarixiy jihatdan hujjatlashtirish, ikkinchisi, asar tarkibidagi shoirlar ijodiga adolatli va tanqidiy baho berish hamda keyingi avlodlar uchun ishonchli manba yaratish bo‘lgan.

Alisher Navoiy ushbu “Majolis un-nafois” tazkirasida davr, madaniy muhit, adabiy jarayon, uning namoyondalari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Unga shoirlar ijodidan 1552 misra she’r jamlaydi[3.17]. Mazkur baytlarni tahlil qilish jarayonida, ulardagi ma’no nozikliklar, ayniqsa, badiiy obrazlarning mahorat bilan ishlaganligi e’tiborimizni tortadi. Bu esa o’sha davr shoirlarining yuksak salohiyat egasi ekanligidan dalolat beradi. Chunki ulardan 41 nafari ikki tilda, jumladan, Mavlono Lutfiy, Mavlono Yaqiniy, Said ahmad Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Faridun Husayn Mirzo va boshqalar turkiy hamda forsiy tilda ijod qilganlar [3].

Asarning ilk majlisida “Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo’lmadim» – deb keltiradi va bu majlisni tabarruk qilish uchun Qosim Anvar zikri bilan boshlaydi. Birinchi majlisda 46kishi haqida keltiradi. Misol uchun, Mir Maxdum, Hofizi Sa’d, Xoja Abdulvafoiy Xorazm, Shayx Oraziy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Ashraf, Mavlono Muhammad Olim, Mavlono Qudsiy, Mavlono Amiriy, Mavlono

Burunduq, Mavlono Orifiy, Mavlono Hoji Abulhasan, Mavlono Naimiy, Mavlono Zayn, Mavlono Muhiy va boshqalar haqida keltirilgan.

Ikkinchi majlisida Alisher Navoiy, yoshligida, ba'zi ulug' shayxlar bilan uchrashgani tarixi haqida bo'lgan. Bu majlis mashhur tarixchi, «Zafarnoma» muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy zikri bilan boshlanadi. Majlisda 91kishi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Alisher Navoiy o'zining tarbiyasi va ijodiy kamolotiga alohida ta'sir ko'rsatgan zotlar: Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Shayx Sadridin Ravosiy, Shayx Kamol Turbatiy, Darvesh Mansur, Hofiz Ali Jomiy, Xoja Yusuf Burhon; o'z zamonining taniqli shoirlari: Mavlono Lutfiy, Yaqiniy, Atoyi, Muqimiy, Sakkokiy, shoir tog'alari Mir Said Kobuliy, Muhammad Ali G'aribiy, farzand o'rnida qadrlagani shoir Mirzobek, ustози va do'sti Sayyid Hasan Ardasher haqida ma'lumot beradi. Zarifov o'z asarida “Agar “Majolis un-nafois” asari bo'lmaganda, bu shoirlar haqida deyarli hech narsa ma'lum bo'lmas edi”[4]¹. Bu fikrga asosiy sabab, qanchadan qancha kishilarning kitoblari yoxun g'azal, she'rlari bizgacha yetib kelmagan, ammo birgina Alisher Navoiyning ushbu asari orqali biz ular haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Bejiz emas balki, Navoiyning tog'alari haqida ham aniq ma'lumotlari “Majolis un-nafois” asari tasdiqlagan bo'lsa. V.Abdullayev birinchi va ikkinchi majlislarni “tarixiy xotira ko'zgusi” deb ataydi.[5]

Uchinchi majlis o'z davri she'riyatiga ulkan hissa qo'shgan yuksak tab'li ijodkorlar haqida bo'lib, buyuk shoir Abdurahmon Jomiy zikri bilan ochiladi. Bu majlis asarning katta qismi bo'lib, ijod qilgan 175ta shoirni sanab o'tadi. Jumladan, Amir Shayxim Suhayliy, Mavloni Sayfiy, Mavloni Osafiy, Mavlonon Jannati, Mir Hoj, Mavloni Zamoniyy, Mavloni Riyoziy, Mavloni Binoiy, Mavloni Qomiy, Mavloni Olim, Qori moro Hoji Majiddin Muhammad, Mavloni Hasanshoh, Mavloni Shomiy, Mavloni Abdullo, Mavloni Xuraamiy, Sayid Quroza, Mavloni Muqliliy, Darvesh Xusomiy, Mavloni Ziyoy, Mavloni Siriy, Mavloni Soyiliy, Mavloni Salomiy, Mavloni Baqoiy, Mavloni Kavsariy, Mavloni Abu Tohir, Mavloni Ofatiy, Mavloni Nuriy, Mavloni Doiy, Mavloni Malik, Pahlavon Kotib va boshqa she'riyat namoyondalar haqida tarif bergan va ularning har biriga tegishli baytlari keltirib o'tadi. N. Mallayev uchinchi majlisni “Hirot adabiy muhitining ensklopediyasi” deb baholaydi.[6] Navoiy ushbu majlisda shoirlarga xolislik bilan beradi va ularning iqtidorini bu majlisda ochib bergan.

To'rtinchi majlisga kelganda Navoiy she'riyat namoyondalaridan ozroq chekinadi va nazm orqali ko'plab nozik ma'nolarni ochib bergan mahoratli kishilardan 70tasi haqida qalam yurgizadi. To'rtinchi majlis Pahlavon Muhammad Go'shtigirkim tarifi boshlanadi. Bu majlisda o'z davrining mashhur voizi, Sharq notiqlik sa'natiga ulkan hissa qo'shgan kishilardan bir Husayn voiz Koshifiy haqida ma'lumot

berilganligi ham taqsiqga loyiq, chunki birgina ushbu asarda keltirilgan Koshifiyning nima sababdan bir muddat va'z so'zlamay qolganligi haqida keltirilganligi ham bir necha fanlar uchun asosli ma'lumot sifatida qo'llanilib kelmoqda."Majolis un-nafois" asarida shunday keltirilgan " Bir kuni minbar ustiga bir matla' bitib ketilgan ekan:

Voizon k-in jilva bar mehrobu minbar mekunand,

Chun ba xilvat meravand on kori digar mekunand

O'qiganigan so'ng ancha payt va'z aytmaydi ,lekin ilmi va niyati pok bo'lganligi sababli, xatolari aybsiz deb hisoblangan va u ishini davom ettirgan". Bundan tashqari Mirxond, Mavolo Xondamir, Mir Sarbarahna, Mavlono Burxoniddin, Mir G'iyosiddin Aziz, Hofiz Sharbatiy, Hoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmol, Mir Murtoz, Mavlono Muin Voiz, Mavlono Muhammad Badahshiy, Mavlono Hoji Mavlono, Sayyid G'iyosiddin, Sayyid Asadulloh, Mavlono Qosim, Mavlono Ali, Shayxzoda Purniy, Mavlono Fasixiddin, Xoja Yaxyo, Xoja Abu Tohir va boshqa kishilar haqida ushbu majlisda keltiradi.

Beshinchinchi majlisda Xuroson boshqa joylarning amirlar, zodagonlar, bilimdon kishilarning she'r yozishga bo'lgan moyilliklari haqida keltirilgan, ularning tabiati sog'lom, fikri to'g'ri va mustahkam bo'lgani uchun she'r yozishga moyillik ularni ilhomlantiradi, ammo nazm bilan muntazam shug'ullanmaydigan 32ta shoir haqida shu majlisda ma'lumot berilgan. Bular Amir Davlatshoh, Mir Husayn Ali Jaloliy, Mir Haydar, Abduvahob, Sulton Husayn, Sheram, Mir Ishqiy, Muhammad Ali Jaloyir, Ibrohim Muhammad Halil, Mir Habibulloh, Darvesh Abdullo, Soqiy va bir qancha kishilar keltirib o'tilgan.

Oltinchi majlisga keladigan bo'lsak, bu tazkirada Xurosondan boshqa yurtlardan bo'lgan shoirlar haqida ma'lumot keltiradi. Bu majlisda ta'rif berilgan shoirlar 23 kishini tashkil etadi, Ahmad Hojibek, Xoja Xurd, Xoja Alouddin Kirmoniy, Bobo Xudoydod, Amir Mahmud Barlos, Xoja Xovand, Orif Farqatiy, Mavlono Nosiriddin, Adhami Ibrohim, Sayyidin Imod, Mavlono Bayzoiy va h.k. Asar tarkibidagi 5va 6 majlislar Xuroson, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon, Qazvin, Sova, Kirmon, Sheroz va boshqa joylardan chiqqan qalamkashlari haqida hisoblanadi. A. Rustamov ushbu majlisni Navoiyning geografik va adabiy qamrov namunasi deb ataydi. Navoiy bu majlis orqali turkiy va forsiy adabiyot faqat Hirot bilan cheklanib qolmaganini, Movaunnahrda ham kuchli adabiy muhit mavjudligini ilmiy isbotlab bergan.[7].

Yettinchi majlis haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Navoiy bu qismni Amir Temur va temuriy hukmdorlar zikriga bag'ishlangan. Bunda Amir Temurdan Sulton Ali Mirzogacha jami 21 nafar shaxs haqida so'z boradi. Y. Is'hoqov bu majlis haqida shunday fikrlarni keltirib o'tadi, "bu yerda hukmdorlarni nafaqat siyosatchi, balki nozik qalb egasi sifatida tasvirlash orqali jamiyatda adolat va ma'rifatni targ'ib qilgan"[8]. Shuningdek, asardagi Shohrux Mirzo, Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo

haqidagi Navoiy bergan tavsiflarning tarixiy haqiqat bilan qiyoslab, Navoiyning xolisligini isbotlangan.

Yakuniy ya'ni sakkizinchi majlis to'liqligicha Navoiyning do'sti Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlagan. S.G'aniyeva ushbu majlisni asarning "cho'qqisi" deb ataydi. Unining yozishicha, 8-majlis shunchaki maqtov, madh emas, balki shohning ijodini xalqaro adabiyot darajasiga ko'tarib ko'rsatadi.[3]. E.Bertles rus sharqshunosi o'zining "Navoiyning o'z hukmdoriga qo'ygan "adabiy haykali" deb ta'riflagan. Chunki asardagi kishilar shunchalik mahorat bilan tasvirlangan va ma'lumotlar keltirilganki, o'qish davomida ularni tasavvur qila olamiz.

Xulosa qilib aytganda, "Majolis un-nafois" asari boshqa xalq tillariga ham tarjima qilingan va tazkirachilik ishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, XVI asrda fors tiliga Faxriy Hirotiy tomonidan 1521-1522-yillarda tarjima qilingan Hirotda, Qazviniy tomonidan 1522-1523-yillarda tarjima qilingan Istanbulda, Shoh Ali tomonidan esa 1598 yilda Nishonpurda tarjima qilingan. O'zbek olimlaridan navoiyshunos S.G'aniyeva asarning ustidagi ilmiy tadqiqotlarida chuqur o'rganib chiqqan. 1964-yilda S.G'aniyeva "Majolis un-nafois" tarjimalari haqida tadqiqoti e'lon qilgan. Shuningdek, "Majolis un-nafois" asarining XV asr oxiri - XVI asr boshlarida ko'chirilgan bir necha nusxasi Vena, Parij, Boku, Samkt-Peterburg, Toshkentda saqlanmoqda. Asarni tahlil ekarmiz, Navoiyning o'z ona tiliga bo'lgan cheksiz hurmatini ko'ramiz. Forsiy tildagi tazkiralar an'anasini turkiy tilda davom ettirib, uni yangi bosqichga olib chiqishi Navoiy bobomizning buyuk jasorati desak bo'ladi. "Majolis un-nafois" o'zbek tilining boy imkoniyatlarini va turkiy xalqlar madaniyatining yuksakligini ko'rsatuvchi tarixiy hujjat va ushbu asar shunchaki shoirlar haqidagi to'plam emas, balki XV asr Markaziy Osiyo madaniy hamda adabiy hayotining haqiqiy qomusi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat.A. Adabiyot qoidalari.- Samarqand davlat nashriyoti.1929
2. A.Sodiqov. Alisher navoiy hayoti va ijodi.- Toshkent; O'zbekiston SSR Fan nashriyoti.1959.
3. S.G'aniyeva. "Majolis un-nafois" asari haqida. O'zbekiston nashriyoti
4. H.Zarifov. Alisher Navoiy va o'zbek tazkirachilik tarixi. Toshkent: Fan 1961.
5. V.Abdullayev "O'zbekiston adabiyoti tarixi". Toshkent. 1964
6. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 1kitob, Toshkent. 1976.
7. A.Rustamov, Navoiyning badiiy mahorati, Toshkent: "Fan". 1979.
8. uz.wikipedia.org